

O'ZBEKISTONNING NEFT-GAZ SANOATINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASI

A.S. Kucharov

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
“Biznes boshqaruvi” kafedrası professori,
E-mail: abrork1967@gmail.com

D.N. Ishmanova

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
“Biznes boshqaruvi” kafedrası dotsenti,
E-mail: d.ishmanova@mail.ru

Annotatsiya

Monopol tarmoqni xususan neft-gaz tarmog'ini davlat tomonidan tartibga solish maqsadida, tariflarni bozor tamoyillari asosida qayta ko'rib chiqish, neft bazalar va hududiy gaz ta'minoti xizmatlarini bosqichma-bosqich davlat-xususiy sheriklik asosida investorlarning ishonchli boshqaruviga berish bo'yicha aniq choralar ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: Monopol tarmoq, bozor tamoyili, neft-gaz, korxona, integratsiya, islohot, tashqi iqtisodiy faoliyat, milliy iqtisodiyot, rentabellik, yalpi ichki mahsuloti, respublika byudjeti

Аннотация

В целях регулирования со стороны государства монопольного сектора, в частности нефтегазового сектора, приняты конкретные меры по пересмотру тарифов на рыночных принципах, передаче нефтебаз и региональных услуг газоснабжения в доверительное управление инвесторов на поэтапной основе.

Ключевые слова: Монопольный сектор, рыночный принцип, нефть и газ, предприятие, интеграция, реформа, внешнеэкономическая деятельность, национальная экономика, рентабельность, валовой внутренний продукт, республиканский бюджет

Abstract

In order to regulate the monopoly sector, in particular the oil and gas sector by the state, specific measures have been taken to revise tariffs on market principles, to transfer oil depots and regional gas supply services to the trust management of investors on a phased basis.

Keywords: Monopoly sector, market principle, oil and gas, enterprise, integration, reform, foreign economic activity, national economy, profitability, gross domestic product, republican budget

KIRISH


Raqamli iqtisodiyot sharoitida Yevropa Ittifoqi neft-gaz infratuzilmasini qo'llab-quvvatlashni tartibga soluvchi qonunga o'zgartirish kiritish bo'yicha kelishuvlarni boshladi.¹ Ushbu qarorga muvofiq, neft-gaz korxonalari infratuzilmalari

¹ <https://www.globalwitness.org/en/campaigns/oil-gas-and-mining/pipe-down/>

uchun davlat subsidiyalaridan foydalanish imkoniyati mavjud bo'лади. Jahonda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning muhim jihatlari — bu bozor iqtisodiyotining eng asosiy elementlaridan hisoblangan raqobatni rivojlantirish, monopol va ustun mavqega ega xo'jalik yurituvchi subyektlarning mahsulotlari va xizmatlarining sifati hamda kafolatini kuchaytirish, ularning narxlari (tariflari) muqobilligini ta'minlash, iste'molchilarning xarid talabini qondirish orqali makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni oshirishga qaratilganligidan iboratdir. Maqolaning ilmiy ahamiyati bugungi kunda neft-gaz tarmoq korxonalarida mavjud iqtisodiy-moliyaviy qiyinchiliklar yechimini topish va ushbu tarmoq korxonalariga yordam ko'rsatish orqali monopol korxonalarni boshqarishning innovatsion usullarini tatbiq etishdan iborat bo'lib, xalqaro bozorda barqaror rentabellikni ta'minlaydigan strategik boshqaruv tizimidan samarali foydalanish, neft-gaz korxonalariga xorijiy investitsiyalarni jalb etishning innovatsion mexanizmlarini institutsional ravishda mustahkamlash, menejmentning innovatsion strategik vositalar bilan ta'sir ko'rsatish kabi ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

M.Sharifxo'jayev [M.Sharifxo'jayev, 2001] fikriga ko'ra strategik boshqaruv — bu korxona (firmaning) istiqbol maqsadi va imkoniyatini xodimlar manfaati bilan uyg'unlashtirishni nazarda tutuvchi uzoq muddatli boshqaruv usulidir.¹



1-Rasm. Strategik boshqaruv tizimi asosiy elementlari va funksiyalari konsepsiyasi²

¹ M.Sharifxo'jayev, Yo. Abdullayev Menejment / Darslik. T.: — "O'qituvchi" 2001, 404-bet

² Квинт, В.Л. Стратегическое управление и экономика на глобальном формирующемся рынке: Монография / В.Л. Квинт. — М.: Бизнес Атлас, 2012. — 630 с.

Akademik V.Kvint [V.Kvint, 2012] nazariyasiga ko'ra strategik boshqaruv elementlari va funksiyalari korxonalarni boshqarishda yuqoridagidek aks etishi lozim. Strategik liderlarning samarali va xatosiz faoliyati uchun menejment tizimi asosiy elementlari mohiyati, usullari va foydalanish shakllarini, boshqaruv funksiyalarini – rejalashtirish, rag'batlantirish va nazorat, strategik qarorlar qabul qilish va amalga oshirish jarayonlari samaradorligi indikatorlarini bilish zarur. Hatto korporatsiya o'z hisob raqamlarida salmoqli hajmda naqd pullarga, keyingi bosqichni moliyalashtirish uchun salohiyatli investorga ega bo'lsada va kengash esa bir qarorga kelganligiga qaramasdan strategik liderliksiz hech narsaga erishib bo'lmaydi. Shu maqsadda yangi strategiyanı tasdiqlashdan so'ng darhol yoki uning taktikasini muhokama qilish vaqtida lider yoki katta bo'lmagan rahbarlar guruhi tanlanishi kerak degan fikrlarni ilgari suradi.

METODOLOGIYA

Maqolada ilmiy abstraksiyalash, mantiqiy fikrlash, qiyosiy tahlil, monografik tadqiqot, dinamikada o'rganish, ma'lumotlarni guruhlash, taqqoslash, korrelyatsion va regression tahlil usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Monopol korxonalarda boshqaruvni amalga oshirish turlari va xususiyatlari, neft-gaz korxonalarida innovatsion boshqaruv tizimini shakllantirish holati tadqiq va tahlil qilingan, shuningdek, mazkur maqolada neft-gaz korxonalarini infratuzilmalariga jalb etilgan investitsiyalarni innovatsion boshqaruvga ta'sirining ahamiyati va unga ta'sir etuvchi omillar, "O'zbekneftegaz" AJ tarkibidagi neft-gaz korxonalarini innovatsion boshqarish mexanizmini iqtisodiy tahlil qilish natijasida xulosa va tavsiyalar shakllantirilgan.

Biz tomonimizdan tarmoqning eksport salohiyati tahlil qilinar ekan, bu borada faqat gazga bog'lanib qolmasdan, uglevodorodlarni chuqur qayta ishlash asosida eksport hajmini oshirish zarurligiga ahamiyat qaratish lozimligi masalaning yechimiga asos bo'la oladi.

1-jadval

"O'ztransgaz" AJ infratuzilmalariga oid statistika (01.01.2019-yil) ¹		
1	Gaz haydash stansiyalari	25
2	Gaz haydash agregatlari	252
3	Gaz tarqatish stansiyalari	393
4	Gaz tarqatish punktlari	101317
5	Magistral gaz quvurlari (km)	13250,2
6	Yuqori bosimli gaz quvurlari (km)	13736
7	O'rta bosimli gaz quvurlari(km)	31651
8	Past bosimli gaz quvurlari(km)	85203
9	Mavjud erkin gaz konlari	210
10	Neft konlari	125

¹ "O'ztransgaz" AJ ma'lumotlari asosida mualliflar taxlili

Uglevodorod xom ashyosini qazib olishni ko'paytirishning 2021-yilgacha bo'lgan dasturi va uni amalga oshirish mexanizmlari tasdiqlandi. 2017-yilda neft va gaz kondensati qazish, suyultirilgan gaz ishlab chiqarish bo'yicha belgilangan reja bajarilgan. Bu esa "O'ztransgaz" AJning infratuzilmalarini takomillashtirish lozimligidan dalolat beradi.

Joriy yil hisobidan "O'zbekneftegaz" AJ tarkibidagi tarmoq korxonalarining statistik ma'lumotlariga asoslanib tahlil etadigan bo'lsak, neft-gaz korxonalari infratuzilmalari bugungi kunda, gaz haydash stansiyalari 25 ta, gaz haydash agregatlari 252 ta, gaz tarqatish stansiyalari 393 ta, gaz tarqatish punktlari 101317 ta, magistral gaz quvurlari 13250,2 km, yuqori bosimli gaz quvurlari 13736 km, o'rta bosimli gaz quvurlari 31651km, past bosimli gaz quvurlari 85203 km, mavjud erkin gaz konlari 210 ta, neft konlari esa 125 tani tashkil etadi.

Ma'lumki mamlakat investitsiya siyosatining maqsadi birinchi navbatda iqtisodiyotning strategik tarmoqlarida innovatsion faollikni, ya'ni tarmoqlarni modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta jihozlashga ustuvorlik berishga asoslanadi.

Maqolada neft-gaz korxonalarini boshqarishda investitsion samaradorlikni baholash uslubi taklif etilgan:

$$C_e = \left\{ \vartheta_{\kappa\delta} U \sum_{\kappa=1}^K \vartheta_{mn} U \sum_{n=1}^{N1} \vartheta_{np} U \sum_{N=1}^{N2} \vartheta_c U \sum_{N=1}^{N3} \vartheta_{\delta} \right\} \quad (1)^1$$

bu yerda: s_{ye} — tayanch investitsiyaning sinergetik samarasi;

ϑ_{kb} - tayanch investitsiyaning kumulyativ samarasi;

$\sum_{\kappa=1}^K \vartheta_{mn}$ - tayanch investitsiyaning multiplikatsion samarasi;

K - tayanch investitsiya modifikatsiyasining miqdori;

$\sum_{n=1}^{N1} \vartheta_{np}$ — tayanch investitsiya asosida tovarlarni ommaviy ishlab chiqarishni

tashkil qiluvchi korxonaning iqtisodiy samarasi hamda uning transaksion va transfert xarajatlarni amalga oshiruvchi modifikatsiyasi;

$\sum_{N=1}^{N2} \vartheta_c$ — korxonalarda tayanch investitsiya va uning modifikatsiyasi asosida ishlab chiqarish va sotishga oid ijtimoiy samara;

$\sum_{N=1}^{N3} \vartheta_{\delta}$ - korxonalarda tayanch investitsiya va uning modifikatsiyasi asosida ishlab chiqarish va uni sotishga oid byudjet samara;


T — investitsion sikl;

t – mahsulot ishlab chiqarishdan boshlab, toki pul mablag'lari oqimining paydo bo'lishigacha bo'lgan vaqt oralig'i.

Tahlillarimizga ko'ra, neft-gaz korxonalarining boshqaruv samaradorligini

o'shishni ta'minlovchi asosiy omillardan biri, aksiyadorlik kompaniyalariga investitsiyalarni jalb qilish mexanizmini takomillashtirish hamda potensial investorlar ishonchini orttirish orqali ularning kapitallashuv darajasini o'stirishdir. Iqtisodiy o'sishni ta'minlashi mumkin bo'lgan ham ichki, ham tashqi bozor uchun raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarishga qodir bo'lgan nano texnologiyalar asosidagi yangi ishlab chiqarish quvvatlariga korporativ investitsiyalarni jalb etish bu boradagi muhim yo'nalish bo'lib qolishi lozim.

Monopol tarmoqlarda davlat xususiy sherikchiligi asosida boshqaruvni taklif etar ekanmiz, strategik boshqaruvga biroz innovatsion yondashishga harakat qildik. Quyida keltirilgan rasmda strategik ahamiyatga ega bo'lgan tarmoqlarni boshqaruvda taklif etilayotgan chizmani ko'rishingiz mumkin (2-rasm). Bunda innovatsion g'oyaga, fikrga ega bo'lgan salohiyatli menejer korxonaning iqtisodiy barqarorligini ta'minlash maqsadida uzoqni ko'ra bilishi hamda qisqa va uzoq muddatli strategiyalarga tayangan holda ichki va tashqi rejalashtirishni to'g'ri amalga oshirishi va risklarni oldini olgan holda korxona istiqboli uchun o'ta muhim bo'lgan qarorlarni qabul qila olishida quyidagi nazariy ketma-ketlikka amal qilishni taklif etmoqdamiz. Korxonani boshqarishda samaradorlikka erishish uchun, avvalo, boshqaruvning maqsadlari, shuningdek, vositalari va unga erishish usullarini aniq belgilab olish zarur. Shu bilan bir paytda boshqaruv maqsadlari tushunarli bo'lishdan tashqari ular barcha bajaruvchilar tomonidan amalga oshirilishiga ham e'tibor berish lozim. To'g'ri tanlangan strategiya korxona rahbarining, shuningdek, butun jamoa va har bir xodimning manfaatlarini ifodalaydi.



2-Rasm. Innovatsion strategik boshqaruv modeli¹

Bunga ko'ra bugungi raqamli iqtisodiyot va innovatsiyalarga tayangan intellektual salohiyatli kadrlar menejmenti yuqorida aks ettirilgan mexanizmga ko'ra samarali boshqara olishini nazariy jihatdan taklif etmoqdamiz. Boshqacha qilib


Голубничий А.С. Управление инвестиционной деятельностью естественной монополии. Автореф. дис. ... канд. экон. наук, М., 2005. 22с.

¹ Mualliflar ishlanmasi

aytganda, biz O'zbekistonni ishlab chiqarishda innovatsiya va intellektual hissining yuqori ulushi bo'lgan barqaror bozor iqtisodiyotiga, zamonaviy va global bozorda raqobatbardosh sanoatga, shuningdek, qulay investitsiya va ishchanlik muhitiga ega jadal rivojlanayotgan mamlakatga aylantirishimiz lozim.

Belgilangan maqsadlarga O'zbekistonni rivojlanishning innovatsion modeliga to'liq o'tkazmasdan turib erishish mumkin emas, bu mamlakatda innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning hamda davlat boshqaruvi, iqtisodiyot ustuvor tarmoqlari va ijtimoiy sohaga innovatsion g'oyalar, ishlanma va texnologiyalarni amalda joriy qilishni rag'batlantirishning samarali tizimini yaratish zaruratini taqozo etadi.

Tarmoqning eksport salohiyati tahlil qilinarkan, bu borada faqat gazga bog'lanib qolmasdan, uglevodorodlarni chuqur qayta ishlash asosida eksport hajmini oshirish zarurligiga ahamiyat qaratish lozimligi masalaning yechimiga asos bo'la oladi.



3-rasm. Neft-gaz sanoatini innovatsion rivojlantirish strategiyasi konsepsiyasi¹

¹ "O'zbekneftgaz" AJ ma'lumotlari asosida mualliflar ishlanmasi

Natijalar interpretatsiyasi. Monopol tarmoqni davlat tomonidan tartibga solish maqsadida, tariflarni bozor tamoyillari asosida qayta ko'rib chiqish, neft bazalar va hududiy gaz ta'minoti xizmatlarini bosqichma-bosqich davlat-xususiy sheriklik asosida, jumladan, Farg'ona neftni qayta ishlash zavodini investorlarning ishonchli boshqaruviga berish bo'yicha aniq choralar ham nazarda tutilishi kerakligi davlatimiz rahbari tomonidan ham ta'kidlandi.

Neft-gaz sanoatini strategik boshqarish vazifasi va mexanizmlaridan kelib chiqqan holda tarmoqni innovatsion rivojlantirish strategiyasi konsepsiyasini ishlab chiqish maqsadga muvofiq va xom ashyo bazalarni jadal rivojlantirish asosida yangi neft va gazni qazib olish markazlarini (Ustyurt, Buxoro-Xiva, Hisor, Surxondaryo va Farg'ona) shakllantirishga asoslanadi.

Jumladan, neft-gaz sanoati markazlari tabiiy neft-gaz xom ashyosi klasterlari integratsiyasi, qidiruv, qazib olish, tashish va qayta ishlashda zamonaviy innovatsion texnologiyalarni qo'llash bo'yicha ilmiy-texnik yutuqlarga erishish, barcha bo'g'inlarda yuqori sifatli, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish asosida shakllantirish lozim.

Neft-gaz sanoatini innovatsion rivojlantirish strategiyasi konsepsiyasini rasmda tahlil qiladigan bo'lsak, asosan maqsadni belgilash, strategik tahlil, innovatsion rivojlantirish strategiyasini shakllantirish omillari hamda innovatsion strategiya talablari uzviy bog'liqlik bilan ko'rsatilgan.

Bunda neft-gaz sanoatini innovatsion rivojlantirish strategiyasi konsepsiyasi amaliyotga tatbiq etish istiqbolida mamlakat neft-gaz sanoatini barqaror rivojlantirishga olib keladi va pirovardida mamlakat byudjeti daromadlari va valyuta tushumlarini keskin oshishiga, shuningdek hududlarda zamonaviy sanoat korxonalari qurish hisobiga qo'shilgan qiymat yaratish va yangi ish o'rinlarini tashkil etish orqali aholi turmush farovonligini yuksalishiga imkon yaratadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida, muhim iqtisodiy muammo bu tabiiy gazdan xalq xo'jaligida yoqilg'i sifatida emas, balki xom ashyo sifatida foydalanish bilan bog'langan va tarmoq korxonalarida innovatsion boshqaruv mexanizmini joriy etish orqali moliyaviy barqaror bo'lmagan korxonalarining iqtisodiy sog'lomlashuviga erishish mumkinligiga oid quyidagi xulosalar shakllantirildi:

Mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan neft-gaz korxonalarining infratuzilmasini yaxshilash, bu bilan birga neft-gaz sohasiga, shuningdek, neft zaxiralarini qazib olish va ishlab chiqarish jarayoniga xususiy kapitalni jalb qilishni taklif etmoqdamiz;

DXSH (davlat-xususiy sherikligi)ni rivojlantirish kabi keng miqyosdagi yangi vazifalar qo'yish orqali biz ushbu tarmoq infratuzilmalarini rivojlanishini, hamda tarmoq korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashimiz mumkin degan taklifni bildirmoqdamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi 4947-son Farmonining 1-ilovasi “2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi” <https://lex.uz/docs/-3107036>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 2019-yil 1-fevral PF-5646-son “O'zbekiston Respublikasi yoqilg'i-energetika tarmog'ini boshqarish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni <https://lex.uz/ru/docs/-4188798>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 26-apreldagi PQ-537-sonli “Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida”gi Qarori <https://lex.uz/ru/docs/-4329270>
4. Голубничий А.С. Управление инвестиционной деятельностью естественной монополии. Автореф. дис. ... канд. экон. наук, М., 2005. 22с.
5. М.Шарифхўжаев, Ё. Абдуллаев Менежмент / Дарслик. Т.: – “Ўқитувчи” 2001, 404-бет
6. Квинт, В.Л. Стратегическое управление и экономика на глобальном формирующемся рынке: Монография / В.Л. Квинт. — М.: Бизнес Атлас, 2012. — 630 с.
7. А.С.Кучаров, Д.Н.Ишманова ТИФда транспорт ташувлари. Ўқув қўлланма. ТДИУ. 359-бет.